

11-sinf. Ona tili. 2-BSB. (50 ball)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshini aniqlab yoza oladi;
- nutq boyligini ta'minlovchi til birliklaridan foydalana oladi;
- matndagi nutqning jo'yaliligi buzilgan o'rinlarni aniqlay oladi;
- frazeologik birliklarni izohi bilan moslashtira oladi;
- ko'chim turlarini to'g'ri ajrata oladi.

1. Gaplar tarkibidan ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nodoshini aniqlab yozing (10 ball).

Hayot har bir kishiga ulkan va bebaho tuhfa in'om etadi, bu kuch-quvvatga to'la yoshlik, bilim va kurashga chanqoqlik, ishonch va orzu-umidga to'la o'spirinlikdir.

2. Berilgan parchani nutq boyligini ta'minlovchi til birliklari (ibora, tasviriy ifoda, ma'nodosh so'zlar) bilan boyitib yozing (10 ball).

Bahor keldi. Daryo bo'ylarida suvlar shovullaydi, daraxtlar kurtak yozadi, havo tiniqlashadi. Qaldirg'ochlar qaytib kelib, osmonda parvoz qiladi. Tabiat uyg'onadi, yuraklarda quvonch paydo bo'ladi.

3. Matndan nutqning jo'yaliligi buzilgan o'rinlarni aniqlang va har birini to'g'ri shaklda yozing (10 ball).

Kechqurun do'stlar bilan ko'chaga chiqib, uzoq vaqt g'iybat qildik. Hamma juda charchagan edi, shuning uchun biz ovqatlanishga qaror qildik. Keyin esa, birga bo'lib, eski voqealarni hujum qildik. Ular orasida eng qiziqarli voqea – bu men o'sha paytda maktabda qanday qilib cho'ntakni buzganim edi. Do'stlarim esa buni eshitib, juda qattiq kulishdi.

Ertasi kuni ota-onam menga gapirib: "Sening so'zlaring juda o'pirilgan bo'libdi", – dedi. Ular mendan doimo rag'batlantirishni kutishadi, lekin ba'zida men noto'g'ri so'zlar ishlataman. Shu bois nutqimning jo'yaliligi haqida o'ylashim kerakligini angladim.

4. Frazeologik birliklarni izohi bilan moslashtiring. (10 ball)

1. Yuragini yormoq	a) Tanqidga mutlaqo chidamaydigan
2. Esxonasi chiqib ketmoq	b) Izzat-hurmatni me'yordan o'tkazib yubormoq
3. Payiga tushmoq	c) O'ylayverib gangimoq
4. Sirkasi suv ko'tarmaydi	d) Noloyiq, yarashmaydigan ish deb bilmoq
5. Soyasiga ko'rpacha solmoq	e) Kimningdir ra'yi, xohishi bilan hisoblashmoq
6. Boshi qotmoq	f) Xatti –harakatlarini ta'qib etmoq
7. Ep bilmaslik	h) Ichidagi istak yoki dardini aytmoq
8. Yuzidan o'ta olmaslik	n) Nihoyatda qattiq qo'rqmoq
9. Yuragi orqasiga tortib ketmoq	m) Iztirob chekmoq, yig'lab yuborish holatiga kelmoq
10. O'pkasi to'lmoq	k) Ich-ichidan qo'rquv aralash qattiq hayajonlanmoq

5. Gaplar tarkibidan ko'chim turlarini ajratib yozing (10 ball).

- Qishlog‘imizga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi.
- “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” asarini o‘qiganimisiz?
- Quyoshning oltin qalami nur taratar edi.
- O‘sha kuni kechgacha tuz totmadim.
- Uyda meni ikkita qorako‘z kutib turibdi.
- Tog‘ etagidagi qishloqqa borish uchun tongda yo‘lga tushdik.
- Yo‘lchining so‘zlariga hayratlanib chol yoqasini ushladi.
- Yuqori qavatdan eshitilayotgan mungli kuy yurakni tirnar edi.
- Navoiyni so‘nggi yo‘lga kuzatishga butun Hirot yig‘ilgan edi.

<i>Metafora</i>	<i>Metonimiya</i>	<i>Sinekdoxa</i>

Baholash mezonlari (50 ball)	
1. Gap tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nodoshini aniqlab yozishi	10 ball
Gap tarkibidan ajratib ko‘rsatilgan barcha so‘zlarning ma‘nodoshini aniqlab yozgan bo‘lsa –	10 – 8 bal
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma‘nodoshini qisman aniqlab yoza olgan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Ajratib ko‘rsatilgan 1-2 ta so‘zning ma‘nodoshini aniqlay olgan bo‘lsa –	4 – 1 ball
2. Nutq boyligini ta‘minlovchi til birliklaridan foydalana olishi	10 ball
Nutq boyligini ta‘minlovchi til birliklaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalangan bo‘lsa –	10 – 8 bal
Nutq boyligini ta‘minlovchi til birliklarining ayrimlaridan foydalangan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Nutq boyligini ta‘minlovchi til birliklaridan foydalanishda xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa –	4 – 1 ball
3. Matndan nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlarni aniqlab, har birini to‘g‘ri shaklda yoza olishi	10 ball
Matndan nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlarni to‘liq aniqlab, har birini to‘g‘ri shaklda yozgan bo‘lsa –	10 – 8 bal
Matndan nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlarni qisman aniqlagan va har birini to‘g‘ri shaklda yoza olgan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Matndan nutqning jo‘yaliligi buzilgan o‘rinlarni deyarli aniqlay olmagan bo‘lsa –	4 – 1 ball
4. Frazelogik birliklarni izohi bilan moslashtirishi	10 ball
Frazelogik birliklarning 10-8 tasini to‘g‘ri moslashtirgan bo‘lsa –	10 – 8 bal
Frazelogik birliklarning 7-5 tasini to‘g‘ri moslashtirgan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Frazelogik birliklarning 4-1 tasini to‘g‘ri moslashtirgan bo‘lsa –	4 – 1 ball
5. Ko‘chim turlarini to‘g‘ri ajrata olishi	10 ball
Gaplar tarkibidan ko‘chim turlarining barchasini to‘g‘ri ajrata olgan bo‘lsa –	10 – 8 bal
Gaplar tarkibidan ko‘chim turlarini qisman ajratib yoza olgan bo‘lsa –	7 – 5 ball
Ko‘chim turlarini ajratib yozishda bir talay xatolikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsa –	4 – 1 ball
Jami:	50 ball